

“Mehr operatsiyasi” nomli videofilmi namoyish etildi

TIQXMMI Qarshi filialida 2019 yil 11 oktyabr kuni 2-juftlik “Axborot va murabbiylik soati” mashg’ulotlarida O’zbekiston Respublikasi markaziy televideniesi orqali 2019 yil 13 sentyabrda namoyish etilgan “Mehr operatsiyasi” nomli maxsus ko’rsatuv videofilmi barcha akademik guruhlarda ko’rsatildi. Videofilm 38 minutga mo’ljallangan bo’lib, jangari oqimlarga bilmasdan qo’shilib qolgan 156 nafar O’zbekistonlik fuqarolarning o’z Vataniga qaytarilishiga bag’ishlangan. Talabalar videofilmni diqqat bilan tomosha qilishdi va unga o’z munosabatlarini bildirishdi. Videofilm yuzasidan qizg’in muzokaralar o’tkazildi.



Institut matbuot xizmati rahbari Rahimboy Jumaniyozov